

# Amaliyot hisoboti

## Amaliyot hisoboti

1. 2018-2019 o'quv yilida fakul'tetning 2 kurs talabalarining "Agroinjeneriya amaliyoti" ni 2019 yil 24-iyundan 13-iyulgacha "Ilmiy-o'quv markazi" da tashkillashtirilgan bo'lib, o'tkazilgan amaliyot natijalariga ko'ra talabalarga traktorlar va o'ziyurar qishloq xo'jaligi texnikalarini boshqarish xuquqini beradigan traktorchi - mashinist guvohnomasi berildi.



2. O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2019 yil 22 mayda tasdiqlangan №01-03/1-1875-son "2019 yil xosili uchun ekilgan boshqoli don ekinlarini o'z vaqqida nes-nobud kilmasdan o'rib-yig'ib olish chora-tadbirlari to'g'risida"gi bayonnomasiga muvofiq "O'zagroservis" AJ tizimidagi "Agroservis MTP" MChJlarda va Toshkent viloyati Quyi Chirchiq tumani "TCT cluster" klasterida 2019 yil 20 maydan 2019 yil 28 iyulgacha bo'lgan muddatda amaliyot g'alla kombaynlariga GPS navigatorlari va yig'ilgan don miqdorini ko'rsatib turadigan datchiklar o'rnatishni amalga oshirish jarayonida "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash" fakul'teti 3-kurs talabarlari ishlab chiqarish amaliyotiga jalb etilgan. 2019 yil g'alla o'rimida 2164 ta - Dominator-130, 1392 ta - Keys, 252 ta - Vektor-410, 126 ta - Nyu-Xolland TS-5060 va 55 ta boshqa rusumdagi, jami 3989 ta g'alla kombayni jalb etilgan. Amaliyot davomida talabalar qishloq xo'jalik texnikalari va traktorlarining tuzilishi, texnologik ish jarayonlari to'g'risida institutda olgan bilimlarini amaliyotda ko'rish, qiyoslash, qo'llash hamda texnikalarni sozlash va ishga tayyorlash, amalda ishlatib ko'rish ko'nikmasi va malakasini shakllantirdilar, shuningdek amaliy hisobotni tayyorlashga tegishli ma'lumotlar bilan ta'minlaganligi hamda amaliyotni na'munali o'tagan talabalar diplom va qimmatbaho sovg'alar bilan rag'batlantirildi.



3. Institut rektorining 02.10.2019 dagi 1131/T-sonli buyrug' asosan "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash" fakul'teti 4-bosqich talabalarining ishlab chiqarish amaliyoti O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2019 yil 31 iyuldagi "Qishloq xo'jaligi mashinasozligini jadal rivojlantirish, agrar sektorni qishloq xo'jaligi texnikalari bilan ta'minlashni davlat tomondan qo'llab-quvvallashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4410-sonli qarori asosida tuzilgan rejaga muvofiq "O'zagroservis" AJ va hududiy "Agroservis MTP" MChJ va Bek TST Klaster" xorijiy MChJ korxonalarini bilan tuzilgan amaldagi shartnomalarga binoan joriy yilning 7 oktyabrdan 26 oktyabrgacha tashkil etildi. Amaliyot o'tish joylari, Sayxunobod tumani "Sayxunobod Agroservis MTP" MChJ; Sirdaryo tumani "Sirdaryo Agroservis MTP" MChJ; Boyovut tumani "Boyovut Agroservis MTP" MChJ; Oqoltin tumani "Oqoltin Agroservis MTP" MChJ; Toshkent viloyati Quyi chirchiq tumani "Bek TST Klaster" xorijiy MChJ; Jizzax viloyati Do'stlik tumani "Do'stlik Agroservis MTP" MChJ larda o'tkazildi. Amaliyot o'tashga jalb etilgan talabalar soni: 188 nafarni tashkil etib, Agroservis MTP MChJlarda paxta terish mashinalari operatorlari yordamchilari, ta'mirlash, ta'mirlash ob'ektlariga ortib jo'natish, agregatlarni komplektlash va mexanizatsiyalashgan texnologik jarayonlarni bevosita bajarishda ishtirok etdilar.

